

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KOMPARATIV  
FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVOMADANIY TAHLILI: NAZARIY VA  
METODOLOGIK YONDASHUVLAR**

**Qurbonova Dilfuzaxon Murodjon qizi**

*Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti, “Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili)” mutaxassisligi magistranti*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqola ingliz va o‘zbek tillaridagi komparativ frazeologizmlarning lingvomadaniy va kognitiv xususiyatlarini qiyosiy tadqiq etadi. Unda inson xarakterini ifodalovchi milliy etalonlar (zoonim, fitonim, somatizm) tahlil qilinib, madaniy lakunalarni bartaraf etishning pragmatik tarjima strategiyalari asoslab berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *komparativ frazeologizmlar, lingvokulturologiya, madaniy kod, zoonim, somatizm, tarjima strategiyalari.*

**Аннотация.** *Данная статья представляет собой сравнительное исследование лингвокультурных и когнитивных характеристик сравнительных фразеологизмов в английском и узбекском языках. В ней анализируются национальные стандарты (зооним, фитоним, соматизм), выражающие человеческий характер, и обосновываются прагматические стратегии перевода для устранения культурных различий.*

**Ключевые слова:** *сравнительные фразеологизмы, лингвокультурология, культурный код, зооним, соматизм, стратегии перевода.*

**Annotation.** *This article is a comparative study of the linguocultural and cognitive characteristics of comparative phraseologisms in English and Uzbek. It analyzes national standards (zoonym, phytonym, somatism) that express human character, and substantiates pragmatic translation strategies to eliminate cultural gaps.*

**Key words:** *comparative phraseologisms, linguoculturology, cultural code, zoonym, somatism, translation strategies.*

## **KIRISH**

Zamonaviy tilshunoslikning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan antroposentrik paradigma tilni faqat lisoniy belgilar tizimi sifatida emas, balki uni inson ongi, milliy madaniyati va ijtimoiy ruhiyati bilan uzviy aloqadorlikda tadqiq etishni taqozo qilmoqda. Ushbu yondashuv doirasida frazeologik birliklar, xususan, o‘xshatish va muqoyasaga asoslangan komparativ frazeologizmlar har bir millatning “lisoniy xotirasi” va olamning o‘ziga xos manzarasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning birinchi qismida frazeologiyaning nazariy asoslari va lingvomadaniyatshunoslik fanining metodologik tamoyillari ingliz va o‘zbek tillari misolida ko‘rib chiqiladi.

Tilshunoslik tarixida frazeologiya uzoq vaqt davomida leksikologiyaning tarkibiy qismi sifatida o‘rganilgan bo‘lsa-da, XX asrga kelib mustaqil soha maqomiga ega bo‘ldi. Sharl Balli va V.V. Vinogradov kabi olimlarning tadqiqotlari natijasida iboralarning semantik yaxlitligi va reproduktivligi (nutqqa tayyor lisoniy qolip

sifatida olib kirilishi) ularning asosiy o'Ichovi deb belgilandi. O'zbek tilshunosligida Sh. Rahmatullayev va A. Mamatovlar frazeologizmlarning tarkibidagi so'zlar o'z mustaqilligini yo'qotib, yaxlit ko'chma ma'no hosil qilishini ilmiy asoslab berganlar. Komparativ frazeologizmlar esa predmetning xususiyatini boshqa bir etalon bilan qiyoslash orqali nutqning ta'sirchanligi va ekspressivligini maksimal darajaga ko'taradi.

Lingvomadaniyatshunoslik (lingvokulturologiya) fani tilni madaniyat orqali, madaniyatni esa til orqali o'rganishni maqsad qilib qo'yadi. V.A. Maslovaning ta'kidlashicha, frazeologizmlar xalq madaniyati va mentaliteti haqidagi ma'lumotlarning eng qimmatli manbai hisoblanadi, chunki ularda xalqning miflari, afsonalari, urf-odatlar va rituallari go'yoki "konservalab" qo'yilgan. Iboralar shunchaki so'zlar yig'indisi emas, balki milliy lisoniy manzaraning asosi bo'lgan konseptlar (masalan, "mehnat", "baxt", "andisha") voqelanadigan muhitdir. Har bir til egalariga dunyoni o'ziga xos tarzda ko'rishni, milliy etiket va stereotiplarga muvofiq xulq-atvorni singdiradi.

Qiyosiy iboralar o'zining nazariy tabiatiga ko'ra uchta majburiy komponentni o'z ichiga oladi: qiyoslanuvchi obyekt, qiyoslash etaloni (andozasi) va qiyoslash asosi (belgisi). Ushbu birliklarning struktura qat'iyiligi ularning leksik bo'linmasligini ta'minlaydi; ya'ni ibora tarkibidagi biron-bir komponentni ixtiyoriy ravishda o'zgartirish butun majoziy ma'noning parchalanishiga olib keladi. Ingliz tilida bu jarayon asosan analitik modellar (*as...as, like*) orqali yuzaga chiqsa, o'zbek tilida aglyutinativ tabiatga xos ravishda sintetik vositalar (*-dek, -day, kabi, singari*) yetakchilik qiladi. Har ikki tilda ham komparativlar tildagi **intensivlik** (sifatning me'yordan yuqori darajasi) kategoriyasini yuzaga chiqaruvchi asosiy kognitiv vosita hisoblanadi.

### **Ingliz tili milliy-madaniy manzarasining KFBlaridagi in'ikosi**

Ingliz tili milliy manzarasida **pragmatizm, shaxsiy erkinlik, individualizm** va **vazminlik** (*understatement*) qadriyatlarini yetakchilik qiladi. Ingliz xalqi uzoq asrlik dengizchilik an'analari, ovchilik va sportga bo'lgan ishtiyoqi natijasida atrof-muhitni mantiqiy analogiya asosida idrok etishga odatlangan.

**Vazminlik konsepti:** Masalan, "*as cool as a cucumber*" (bodringdek sovuqqon) iborasi ingliz madaniyati uchun xos bo'lgan og'ir-vazminlik va hissiyotlarni jilovlash qadriyatining lisoniy voqelanishidir.

**Individualizm:** Ingliz KFBlarida hayvon obrazlari ko'pincha shaxsning individual ustunliklarini (masalan, "*as brave as a lion*") ulug'lashga xizmat qiladi.

**Tarixiy manbalar:** Ingliz idiomatikasining boyligi uning dengiz terminlari (“*to be at sea*”) va antik mifologiya hamda Injil bilan bog‘liq alluziyalarida ham yaqqol ko‘rinadi.

O‘zbek lisoniy manzarasi xalqning azaliy **jamoaviylik, sharqona andisha, hayo, mehr-oqibat** hamda bevosita qishloq xo‘jaligi tsikliga qattiq bog‘langan etnomadaniy qiyofasi bilan ajralib turadi.

**Andisha va hayo konsepti:** O‘zbek mentalitetida oila va ijtimoiy munosabatlar markaziy o‘rin tutgani sababli, iboralar ko‘pincha axloqiy baho berishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Masalan, “*yuzi shuvut bo‘lmoq*” yoki “*yuzidan o‘tolmaslik*” kabi somatik birliklar orqali milliy andisha tizimi ifodalanadi.

**Mehnatsevarlik konsepti:** Ingliz madaniyatida mehnatsevarlik asosan asalari (“*as busy as a bee*”) bilan ijobiy bo‘yoqdorlikda tasvirlansa, o‘zbeklarda bu holat ko‘pincha jarayonning mashaqqati va og‘irligiga urg‘u berilib, eshak (“*eshakdek ishlamoq*”) obrazi orqali kognitiv modellashtiriladi.

Tillarning konseptual maydonlarini chog‘ishtirish orqali madaniy kodlarning takrorlanmas tizimi aniqlandi.

**1. Zoonimlar (hayvonot olami):** Har ikki tilda ham hayvonlar inson xarakteri uchun asosiy etalon vazifasini bajaradi. Biroq, bir xil hayvon obrazi turlicha konnotatsiyaga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, inglizlarda boyo‘g‘li (“*owl*”) donolik ramzi bo‘lsa, o‘zbek madaniyatida u ko‘pincha shumqadamlik va xarobalik ramzi sifatida idrok etiladi.

**2. Fitonimlar (o‘simliklar olami):** Insonning tashqi go‘zalligi o‘zbek tilida “*sarvdek qomat*”, “*olmadek yuz*” kabi milliy estetik ideallar orqali tasvirlanadi.

Somatizmlar (tana a‘zolari): Somatik KFBlar antropotsentrik paradigmaning markaziy qismini tashkil etadi. O‘zbek tilida “*bosh*”, “*ko‘z*”, “*yurak*” va “*ko‘ngil*” somatizmlari nafaqat jismoniy a‘zo, balki vijdon va ruhiy holat konseptlari sifatida yuksak pragmatik yuk tashiydi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi komparativ frazeologizmlarning lisoniy strukturaviy tahlili ikki xil tizimga ega bo‘lgan lisoniy qonuniyatlarning o‘zaro chog‘ishtirilishini taqozo etadi. Ingliz tili hind-yevropa tillari oilasining german guruhiga mansub bo‘lib o‘zining flektiv analitik tabiati bilan ajralib tursa o‘zbek tili turkiy tillar oilasining aglyutinativ tabiatiga ega hisoblanadi. Bu farq qiyoslashga asoslangan barqaror birikmalarning yasash modellarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ingliz tilida turg‘un o‘xshatishlar asosan maxsus predloglar va bog‘lovchilar yordamida ya‘ni mutlaq analitik yo‘l bilan shakllanadi. O‘zbek tilida esa bu jarayon ko‘proq affiksatsiya va qisman analitik vositalar orqali amalga oshiriladi. Ingliz tilida as as yoki like kabi yordamchi vositalar qiyosiy konstruksiyaning asosi bo‘lib xizmat qilsa o‘zbek tilida

dek day affikslari hamda kabi singari ko‘makchilari muqobillikni ta‘minlaydi. Ushbu turg‘un vositalar lisoniy birliklarning obrazli asoslariga birikib keladi va nutqda bir butun semantik blok sifatida namoyon bo‘lishini to‘liq kafolatlaydi.

Komparativ frazeologizmlarning struktur qat‘iyliigi ularning leksik jihatdan bo‘linmaydigan birikma ekanligidan dalolat beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki komparativ frazeologik birliklar sifat yoki belgini ifodalashning eng yuqori qo‘shimcha vositasi bo‘lib alohida ekspressiv xususiyatga va samaradorlikka egadir. Intensivlik deganda gapdagi ish harakatning semantik mohiyatini kuchaytirish yoki qo‘shimcha miqdoriy xarakteristikani ifodalash tushuniladi. Ingliz tili milliy manzarasida bu intensivlik ko‘pincha qat‘iy modellar asosida shakllanishi bilan ajralib turadi. Masalan as white as snow yoki as cold as ice modellarida o‘xshatish asosi va qiyoslash etaloni o‘rtasida mustahkam morfologik hamda sintaktik aloqa mavjuddir. O‘zbek tilida esa bu vazifani ot komponentiga qo‘shiladigan dek day qo‘shimchalari bajaradi va bu aglyutinatib tabiatdan kelib chiqqan holda o‘ta tejamkor strukturani yuzaga keltiradi. Frazeologizm leksik jihatdan so‘zlarning bo‘linmaydigan birikmasi bo‘lib u o‘ziga xos morfologik va sintaktik tuzilishga egadir.

Lisoniy birliklarning struktur va semantik qonuniyatlarini tahlil qilish asnosida shuni alohida ta‘kidlash lozimki komparativ frazeologizmlarning ichki mexanizmi o‘ziga xos mantiqiy kognitiv asosga tayanadi. Qiyosiy iboralarning sintaktik modellariga xos bo‘lgan barqarorlik aslida ularning ichki semantik butunligini saqlab qolish uchun xizmat qiladi. Har qanday komparativ frazeologizm zaminida qiyoslash asosi yotadi va u qiyoslanayotgan obyekt va madaniy etalon o‘rtasidagi yashirin yoki oshkora o‘xshashlikni ta‘minlaydi. Frazeologik ma‘noning shakllanishi masalasida ibora ham tarkibli til birligi ekanligi biroq uning ma‘nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma‘nolarning oddiy yig‘indisiga teng bo‘lmasligi ilmiy isbotlangan. Iboraning tarkibidagi so‘zlar mexanik tarzda birlashmaydi balki o‘zlarining birlamchi lug‘aviy xususiyatlarini yo‘qotib yangi majoziy va yuksak uslubiy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan frazeologik ma‘noni yaratadi.

Konseptual maydonlar doirasida zoonim fitonim va somatizm komponentli birliklarning qiyosiy tahlili har ikki xalqning olamni idrok etish usullari tubdan farqlanishini ko‘rsatadi. Ingliz lisoniy manzarasida inson xarakteri ko‘pincha mantiqiy aniqlik hamda amaliy natijadorlik nuqtayi nazaridan baholanadi. O‘zbek tilida esa antropotsentrik tasvirlar hamda emotsional bo‘yoqdorlik ustuvorlik qiladi. Zoonimik makromaydon hayvonlar orqali xarakterni modellashtirishda xizmat qiladi va inglizlarda as busy as a bee mehnatsevarlikni ijobiy konnotatsiyada ifodalasa o‘zbek tilida eshakdek ishlamoq iborasi ko‘pincha jarayonning mashaqqati va

og'irligiga urg'u beradi. Somatik birliklar esa inson tana a'zolari asosidagi kognitiv etalonlar bo'lib o'zbek tilida ko'ngli pok yoki qalbi daryo kabi birliklar insonning ichki dunyosini ma'naviy mezonlar asosida tasvirlaydi. Fitonimik maydon esa tashqi go'zallikni sarvdek qomat yoki olmadek yuz kabi milliy estetik ideallar orqali lisoniy voqelantiradi.

Madaniy kodlarni saqlovchi komparativ frazeologizmlarni adekvat tarjima qilish muammosi hozirgi zamon qiyosiy tilshunosligining eng murakkab hamda mas'uliyatli vazifasidir. Tarjima jarayonida mutaxassis faqatgina quruq leksik birliklarni emas balki asrlar davomida xalq ongida shakllangan kognitiv va etnomadaniy qarashlarni o'zga til qoliplariga sig'dirishiga to'g'ri keladi. Bir tilda estetik yoki axloqiy go'zallik ramzi sanalgan obyekt ikkinchi bir til manzarasi uchun mutlaqo yot yoki hatto salbiy assotsiatsiyalarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli badiiy nutqdagi turg'un o'xshatishlarni o'girish faqatgina lug'aviy muqobil izlash bilan cheklanmaydi balki tarjimondan chuqur lingvokulturologik bilimlarni talab qiladi. Idiomatik tilni to'g'ri va samarali tarjima qilishda kontekst va madaniy sezgirlikning hal qiluvchi roli beqiyosdir.

Lisoniy va madaniy lakunalar yuzaga kelganda pragmatik yechimlar va strategiyalar muhim o'rin egallaydi. Ingliz tilidagi as fit as a fiddle iborasini o'zbek tiliga skripkadek sog'lom deb o'girish mantiqsizlikka olib keladi chunki o'zbek mentalitetida musiqa asbobi va salomatlik o'rtasida kognitiv bog'liqlik yo'q. Bunday holatlarda tarjimon pragmatik adaptatsiya usulidan foydalanib etalonni o'zbek lisoniy manzarasiga mos keladigan otdek sog'lom yoki xo'rozdek bo'lib ketmoq kabi zoonimik obrazlar bilan almashtirishi zarurdir. Shuningdek as poor as a church mouse kabi diniy konseptli iboralarni o'zbekona it yotish mirza turish yoki bir mirisi yo'q kabi milliy muqobillar bilan o'girish matnning emotsional ta'sir kuchini saqlab qolishga xizmat qiladi. Pragmatik adekvatlikka erishish uchun tarjimon ko'pincha domestikatsiya strategiyasidan foydalanadi chunki o'xshatishning asosiy lisoniy maqsadi kitobxon ongida tezkor va ta'sirchan vizual obrazni yaratishdir.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda ingliz va o'zbek tillaridagi komparativ frazeologizmlar inson shaxsiyatini turli rakurslarda tasvirlash imkonini beradi. Ingliz tilida mantiqiy analogiya va intensivlik kognitiv modellar asosini tashkil qilsa o'zbek tilida milliy qadriyatlar hamda antropotsentrik metaforalar asosiy rol o'ynaydi. Har bir ibora zamirida yashiringan madaniy kodlar ikki xalqning o'ziga xos dunyoqarashini hamda olamni obrazli idrok etish usullarini to'laqonli namoyon etadi. Ushbu lisoniy birliklarni tizimli tadqiq etish madaniyatlararo muloqotni chuqurroq anglashda hamda tarjimashunoslik amaliyotidagi murakkab muammolarni bartaraf etishda katta ilmiy

qiymatga egadir. Iboralarni tahlil qilish orqali biz aslida soʻzlarni emas balki oʻsha soʻzlarni asrlar davomida yaratgan xalqning ruhiyatini va madaniy oʻzligini tahlil qilgan boʻlamiz. Qiyosiy frazeologiyani oʻrganishni davom ettirish til dunyoni idrok etishimizni qanday aks ettirishi va shakllantirishi haqidagi tushunchamizni chuqurlashtirishni va'da qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Abdullayeva Z.F. Emotional-exclamatory sentences in English and Uzbek languages. Magistrlik dissertatsiyasi annotatsiyasi. – Toshkent: OʻzMU, 2024. – 3 b.
2. Baxronova D.K. Olam manzarasining milliy-madaniy va lingvokognitiv kategoriyalanishi. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent: OʻzDJTU, 2021. – 260 b.
3. Dushayeva U.Y. Ispan tilida komparativ frazeologizmlarning struktur-semantik va funksional xususiyatlari. Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent: OʻzDJTU, 2024. – 140 b.
4. Joʻrayev N. Tarjimada ekvivalentlik va adekvatlik masalalari. // Oʻzbek tili va adabiyoti jurnali. – Toshkent, 2019. – № 4. – 55-58 b.
5. Mahmudov N., Xudoyberganova D. Oʻzbek tilining oʻxshatishlar izohli lugʻati. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2013. – 320 b.
6. Mamatov A.E. Oʻzbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari. // Filologiya masalalari jurnali. – Toshkent: Fan, 2000. – № 4. – 12-18 b.
7. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: Akademiya, 2001. – 208 b.
8. Qurbonova D. Linguistic and cultural characteristics of comparative phraseologisms in English and Uzbek. // “Tilshunoslik masalalari - yosh tadqiqotchilar nigohida” talabalar ilmiy konferensiyasi materiallari toʻplami. – Toshkent: OʻzDJTU, 2025. – 784-788 b.